

## CHET TILI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Samandar Mahmudov

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada chet tili o'qitish metodikasi haqida va o'qitish metodikasida qo'llanilayotgan usullar haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari yurtimizda horijiy tillarni mukammal o'rgatish va o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy metodlar hamda ulardan keng foydalanishning ahamiyatlari yoritilgan.*

**Аннотация :** *Эта статья содержит информацию о методах разработки медицины и преподавания иностранных языков, используемых в методах обучения. Кроме того, в нашей стране важность его широкого использования необходимого для изучения.*

**Abstract:** *This article provides information about the methodology of foreign language teaching ,its development as a science and the methods used in the teaching methodology. In addition, modern methods necessary for excellent teaching and learning of foreign language in our country and the important of their wide use are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** *Chet tili, ko'nikma, malaka, metodika, innovatsiya, ta'lim jarayoni.*

**Ключевые слова:** *Иностранний язык, навыки, квалификация, методические, инновации, образовательный.*

**Key words:** *Foreign language, skills, qualification, methodology, innovation. educational process.*

Hozirgi davda ta'lim olish va chet tillarini o'rganish zamon talabiga aylangan ya'ni xalqimiz orasida ham "Til bilganni el biladi" degan maqollar ham mavjud. Bugungi kunga kelib chet tillarini o'qitishda turli xil zamonaviy innovatsiyalardan foydalanilmoqda. Chunki til bu madaniyatning yo'l xaritasi. Usizga uning aholisi qayerdan kelgani va qayerga ketayotganini aytib beradi.<sup>52</sup> Innovatsiya- inglizcha "yangilikni kiritish, tarqatish" ma'nolarini anglatadi. Innovatsiya kiritishning psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E. FRodjers tomonidan ishlab chiqarilgan. Til o'rganish kishilik jamiyatida muhim sohalaridan biri hisoblanadi ya'ni xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib turli chet tillarini o'rganish shunchalik kuchaydiki bog'cha yoshidagi boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha chet til tillarini o'rganishga harakat qilishyapti. Bu ijobiy holat, chunki chet tillarini o'rganish o'sha tilde gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf-odatlarini o'rganish bilan shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratdi.<sup>53</sup> Bitta til sizni hayot yo'lakchasiga joylashtiradi. Ikki tilni bilish esa yo'lingizdagi barcha eshiklarni ochadi. Yurtimizda tahsil olayotgan oliy o'quv yurt talabalari vat il o'rganayotgan yoshlar

<sup>52</sup> Rita Mey Braun

<sup>53</sup> Frank Smit "Sread of evidence"

asosan 3 xil turdagi tillarni o'rganadilar ya'ni bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til va chet til. Ona tili bu qon-qonimizgacha singib ketgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan va bundan tashqari tug'ilganimizdan boshlab quloqlarimiz ostida jaranglagan alla sadosi. Ikkinchi til esa o'zimizga ma'lum ya'ni o'zimiz bilgan tilga yaqin bo'lgan til qardosh tillarimizni olishimiz mumkin. Chet tili esa bizga yot bo'lgan tillar ya'ni yevropa va shunga o'xshash tillari misol bo'ladi. Uchchala tilni o'qitish jarayoni turlicha bo'ladi; Ona tili va ikkinchi til tabiiy, chet tili esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tillarini o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet tili o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir. Chet tillarini o'rganishda ilg'or zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Ta'lim jarayonida texnologik vositalardan foydalanish chet tillarini o'rganishning har bir bo'limlarini o'zlashtirish va mustahkamlash beqiyos rol o'ynaydi. Masalan: tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishni kompyuter, playerlarsiz tasavvur qilish qiyin chunki bu vositalar orqali tinglab tushunishni shakllantirib bo'lmaydi. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Bundan o'uvchi bir paytning o'zida grammatik ko'nikmalarni, talaffuzini, qanchalik so'z boyligiga, so'zlarning ma'nolariga e'tibor beradi. Chunki bugungi globallashtirish jarayonida til o'rganish 1-darajaga ko'tarilgan va horijiy sertifikatlarni olish va chet el universitetlarida o'qish juda ommalashgan.<sup>54</sup> Boshqa tilni o'rganish nafaqat bir xil narsalar uchun turli so'zlarni o'rganish, balki narsalar haqida fikr yuritishning boshqa usulini o'rganishdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, har bir innovatsiya texnologiyalar bir qancha qulayliklarga ega. Chet tillarini o'rganish davrida o'quvchi yoshlarga bir qancha innovatsiyalar va qulay sharoitlar yaratilgan. Chet tillarini o'rganish davrida o'quvchi yoshlarga innovatsiyon usullardan foydalanish o'rganayotgan yoshlarning mantiqiy va kreativ fikrlashni oshirishga, tez va to'g'ri javob berish masalalariga yordam beradi. Bu esa o'quvchi yoshlarning yangi chet tillarini yanada tez fursatda o'rganishlariga turtki bo'ladi. Insonlar doimo o'zlari uchun qiziqarli va huzurbaxsh mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga harakat qiladilar va hattoki, vaqt qanchalik tez o'tganini ham sezmay qoladilar. Agarda, yangi til ham kuchli qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganilsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetishish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M.Xoldorova, N.Fayziyeva, F.Rixsitillayeva "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". Toshkent: Nizmomiy nomidagi TDPU, 2005. 280-bet.
2. Xatamova N.Q "Mirziyayeva M.N. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma) Navoiy, 2006. 40-bet
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-til-o'qitish-metodikasida-zamonaviy-metodlar>
4. <https://www.brainyquote.com/authors/flora-lewis-quotes>

<sup>54</sup> Flora Luis "Road to Unity"